Karimova Muyassarxon Abduqayumovna (KUAF "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi; e-mail: karimova@gmail.com)

TA'LIM VA TARBIYA–XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY MUHOFAZALASHNING USTUVOR YO'LI

Annotatsiya. *Maqolada xotin-qizlarniing ta'lim va tarbiyasiga berilayotgan e'tiborning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizda bu borada qilinayotgan islohotlar va amaliy harakatlar asoslari bilan keltirilgan. Ayollarning ta'lim va tarbiyadagi yutuqlari ularning ijtimoiy muhofazalashning ustuvor yo'nalishi ekanligi manbalar asosida ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *xotin-qizlar, ijtimoiy muhofaza, ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ilmiy tadqiqot, gender tenglik, kasb-hunar.*

Каримова Муассархан Абдукаюмовна (доцент кафедры "Социально-экономических наук" КУАФ, кандидат философских наук)

ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЕ–ПРИОРИТЕТНЫЙ ПУТЬ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН

Аннотация. *В статье философски проанализированы особенности внимания, уделяемого образованию и воспитанию женщин. В частности, приведены основы проводимых в нашей стране реформ и практических действий в этом направлении. Достижения женщин в образовании и воспитании были сформулированы на основе источников, обосновывается мнение, что они являются приоритетом социальной защиты.*

Ключевые слова: *женщины, социальная защита, наука, образование и воспитание, научные исследования, гендерное равенство, профессия.*

Karimova Muassarkhan Abdukayumovna (Associate Professor of the Department "Social and Economic Sciences" KUAF, Candidate of Philosophical Sciences)

EDUCATION AND UPBRINGING IS A PRIORITY WAY OF SOCIAL PROTECTION OF WOMEN

Annotation. *The article philosophically analyzes the features of the attention paid to the education and upbringing of women. In particular, the basics of the ongoing reforms in our country and practical actions in this direction are given. The achievements of women in education and upbringing were formulated based on the sources that they are a priority of social protection.*

Keywords: *women, social protection, science, education and upbringing, scientific research, gender equality, profession.*

Kirish. Xotin-qizlarning ta'lim va tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabat global va milliy taraqqiyot uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega dolzarb muammolardan. Ayollar ilm-fanda faol bo'lgan mamlakatda nafaqat iqtisodiy va innovatsion o'sish yuqori bo'ladi, balki xotin-qizlarning o'zini ijtimoiy muhofaza qilishning yagona yo'li hamdir. Shuning uchun bugun yangi O'zbekistonda ayollarning ilm-fan va ta'lim sohasidagi ishtirokini oshirish, ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, grantlar va ta'lim dasturlari orqali qo'llab-quvvatlash davlat siyosatiga aylangan. Butun dunyoda ilm-fan va ilmiy izlanishlarda xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori ta'lim va ilm-fan borasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonning oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, ijodiy san'at va matematikani rivojlantirishga urg'u berilgan. Unga ko'ra oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida xotin-qizlarni o'qitishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Ayollar uchun bepul hamshiralik, tikish-bichish, kulinariya, kompyuter savodxonligi, til kurslari tashkil etilib, ish bilan ta'minlanmoqda. M.Xolmatovaning "Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi"[1] asarida sog'lom avlodni tarbiyalashda onaning ro'liga urg'u berilgan. UNESKO ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha ilm-fan sohasida ishlaydigan tadqiqotchilarning 30–35% ayollar hisoblanadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 48 foizni tashkil etadi.[2] O'zbekistonda 2022–

[1] M.Xolmatova. Oilaviy munosabatlar madaniyati va soglom avlod tarbiyasi. Toshkent, 2000, 51-bet.

[2] O'zbekistonda olimlarning 48 foizini ayollar tashkil etadi.https://daryo.uz/k/2025/02/11/saida-mirziyoyeva-ozbekiston-olima-ayollari-forumida-ishtirok-etdi-foto

2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur tasdiqlangan.

“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (500-son, 2024-yil 12-avgust) bilan oila va xotin-qizlar qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlangan bo‘lib, qo‘mitaning asosiy vazifalari va funksiyalari belgilab berilgan.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Yurtimizda xotin-qizlarning sifatli ta’lim va tarbiya olishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mutafakkir jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ta’biri bilan aytganiday, “Onalar – butun bashariyatning tarbiyachilaridir“. Darhaqiqat, oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga, zamonaviy kasb-hunarga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi. Biz shu maqsadda xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim dasturni qabul qildik”, dedi davlat rahbari.[2] Prezident hozirda ayollarning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, ta’lim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida esa 46 foizni tashkil etayotganini qayd etdi.[3]

Konsepsiya, farmon va qarorlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ayollarning ilm-fandagi ishtirokiga qaratilgan maxsus dasturlarni amalga oshirmoqda. Davlat tomonidan qizlarning ta’lim olishini rag‘batlantirish uchun maxsus grantlar, kvotalar va stipendiyalar joriy qilingan. Ayniqsa, STEAM (aniq fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) yo‘nalishlarida ayollarning ishtiroki oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, ilmiylik va mantiqiy izchillik, tarixiylik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ayollarning fan va texnika sohasidagi ishtiroki mamlakatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayollar ta’lim sohasida faol bo‘lsa, jamiyatning ma’naviy saviyasi oshib, intellektual salohiyati yuksaladi. Ayollarning ta’lim va fan sohasida to‘laqonli ishtiroki gender tengligini ta’minlashga ham xizmat qiladi, jamiyatda esa barqarorlikka hissa qo‘shadi.

Oliy ma’lumotli onalar farzandlarining savodxonligi va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayrim jamiyat qatlamlarida ayollarning ilm-fan va texnika sohalaridagi ishtirokiga nisbatan salbiy fikrlar mavjud. Ba’zi insonlar “Ayol kishi o‘qib shahar olib berarmidi” degan noto‘g‘ri tushunchaga ega. Bugungi global dunyoda global ongni o‘zgartirish vaqti yetib keldi. Bugun bilimsiz, qo‘lida mutaxassislik diplomiga ega bo‘lmagan, til bilmagan va ish joyiga ega bo‘lmagan insonga psixologik va iqtisodiy jihatdan ham murakkab vaziyatlarga tushib qolishi mumkin. Zamon to‘siqlarini dovdirab qolmasdan, shokka tushmasdan oqilona bosib o‘tish qobiliyatini shakllantirish, muammo inson hayoti davomida uning parallelida mavjud bo‘lishi va undan qo‘rqmaslik, o‘z hayotini boshqarish salohiyatiga ega bo‘lish, oyoqda mahkam turish va o‘ziga ishonchi ortishi uchun, albatta, har bir xotin-qiz bilim va kasb cho‘qqilarini egallashi lozim. Bunday insonlar oilasida barqarorlik va rivojlanish bo‘ladi, unda voyaga yetgan farzandlar davlat va jamiyat uchun xizmat qiladi, vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatadi. Bir so‘z bilan aytganda, birinchi navbatda, ilmli ayol millat tarbiyachisidek og‘ir va sharafli vazifani bajaradi. Shuning uchun ham bugun qizlarni o‘qitish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ilmiy va ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarini, asosan, erkaklar egallagan. Ayollar uchun rahbarlik lavozimlariga tayyorlash dasturlarini kuchaytirish, ularni boshqaruv jarayonlariga kengroq jalb qilish kerak. Ayrim ayollar iqtisodiy yoki oilaviy sabablarga ko‘ra ta’lim va ilmiy faoliyatni tashlab ketishadi. Xotin-qizlarning ilm bilan shug‘ullanishiga oilada erkak, qaynona, otaning qarshiligi kabi to‘siqlar ham uchrab turadi. Xotin-qizlar uchun ilmiy grantlar va moliyaviy yordam dasturlarini joriy etish va OAVlarda ayollarning bilimli bo‘lishi har tomonlama oilaga foyda keltirishi haqida targ‘ibot ishlarini olib borilmoqda. Ilmli ayollar, o‘qimishli qizlarning oilasi va hayoti OAVlarda, ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilmoqda. Biroq bu targ‘ibotlarni yanayam samarali vositalarini joriy etish lozim.

Davlatning ta’lim sohasidagi siyosati mehnat bozorida ikki yo‘nalishdagi imkoniyatlarda gender tengligiga erishishga ham yordamlashishi mumkin: birinchidan, ayollarning bilim darajasini oshirishga ko‘maklashish orqali, ikkinchidan, ayollar va erkaklar tomonidan boshqa jins vakillari an’anaviy tarzda ko‘pchilikni tashkil qiladigan kasb-hunarlarni egallashlarini rag‘batlantirish orqali. Masalan, 2002-yilda Avstri-

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

[2] “Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi”. Prezident // https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/womens/

[3] O‘sha joyda.

yada ilmiy tadqiqotlar bilan shug‘ullanadigan ayollar sonini oshishiga yo‘naltirilgan besh yillik loyiha joriy qilingan edi. Hukumat tomonidan ajratiladigan grantlar fan va texnologiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan ayollarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Axborot texnologiyalari sohasida ishlovchi ayollar uchun yozgi maktablar tashkil qilish; tadqiqotlarni o‘tkazish uchun ularga stipendiyalar ajratish; texnik fanlarni o‘qitish tamoyillarini o‘zgartirish uchun majmuaviy gender yondashuvni joriy qilingan. Mazkur loyiha doirasida Vena texnologik universitetida “Ayollarning Internet-texnologiyalar kolleji” (Women’s Postgraduate College for Internet Technologies) dasturi ochilib, u kompyuter sohasida ayollarning muammosini bartaraf qilishga chaqirilgandi.

Norvegiya tajribasi ham ta’lim sohasida majmuaviy gender yondashuvini joriy qilishning yana bir namunasi hisoblanadi, u yerda Norvegiyaning janubiy qismida “qizlar va texnologiya” nomli loyiha amalga kiritildi, uning maqsadi ayollarni texnologik tarmoqlarga jalb qilishdan iboratdir. Mazkur loyihani to‘liq amalga oshirish jarayonida texnologik ixtisoslikni tanlayotgan qizlar soni yiliga 30%ga o‘sdi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ayollarning ta’lim tarbiyasi bashariyat yutug‘i desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Dunyo kelajak avlodlari ular qo‘lida voyaga yetadi. Ilmli, diyonatli xotin-qizlarimiz farzandiga to‘g‘ri tarbiya berishi bilan millatlar kelajagini barpo etadi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, agar kishi o‘zi tarbiyalangan bo‘lmasa, farzandiga o‘zi o‘rnak bo‘lolmasa, aytgan gaplariga o‘zi amal qilmasa, u hech qanday natijaga erisha olmaydi. Muborak hadislarda Rasulullo s.a.v aytadilar: “Farzandlaringizga munosib onani ixtiyor qilinglar”,[1] deyilgani bejiz emas. Munosib ona bu ta’lim va tarbiyada ustuvor ayoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

(2). “Oilada bir nafar qiz o‘qib, oliy ma’lumotga ega bo‘lsa, xonadondagi muhit butunlay o‘zgaradi” – Prezident // https://www.gazeta.uz/uz/2023/03/07/womens/

(3). O‘sha joyda.

(4). https://oliymahad.uz/22663

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘naishi 1-bosqich magistranti; Mardanovuktamjon @gmayl.com)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TERMINLAR LINGVOPOETIKASINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada terminologik tizimning so‘nggi yillardagi taraqqiyoti, badiiy matnda terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi muammolari, sohaviy terminlarning badiiy matnda uslubiy xoslanish xususiyatlarining tadqiq etilish masalasi atroflicha yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *terminologik tizimi, sohaviy terminlar, lingvistik xususiyatlar, ko‘p ma’noli terminlar, lingvokulturologik talqin, terminlarning lingvopoetik aktuallashuvi, uslubiy xoslanish, poetik-estetik maqsad, terminlarning uslubiy maqomi.*

Марданов Уктамжон Рустамович (Бухарский институт психологии и иностранных языков, кафедра узбекского языка и литературы, магистрант 1 курса; Мардановуктамджон. @gmail.com)

ИЗУЧЕНИЕ ЛИНГВОПОЭТИКИ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация*. В данной статье всесторонне освещается развитие терминологической системы за последние годы, проблемы лингвопоэтической актуализации терминов в художественных текстах, а также изучение стилистических особенностей профессиональных терминов в художественных текстах.*

Ключевые слова: *терминологическая система, профессиональные термины, языковые особенности, полисемичные термины, лингвокультурная интерпретация, лингвопоэтическая актуализация терминов, стилистическая адаптация, поэтико-эстетическое назначение, стилистический статус терминов.*

Mardanov Uktamjon Rustamovich (Bukhara Institute of Psychology and Foreign Languages. The department of Uzbek Language and Literature, 1st year master’s student; @gmayl.com)

THE STUDY OF LINGUOPOIETICS OF TERMS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article comprehensively examines the recent development of the terminological system, the problems of linguopoetic actualization of terms in literary texts, and the issue of researching the stylistic characteristics of specialized terms in literary works.*

[1] https://oliymahad.uz/22663